

**KORRUPSIYA - RIVOJLANGAN DAVLATLARNING ASOSIY MUAMMOSI**

**Ma'murova Nilufar Ma'rufjon qizi**

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 32-23-guruh o‘quvchisi

Telefon: +998902734107

[Nilufarmamurova085@gmail.com](mailto:Nilufarmamurova085@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10379211>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaning vujudga kelish sabablari va unga qarshi qo‘llanilgan jazo, korrupsiya rivojlangan va korrupsiya darajasi past bo‘lgan davlatlar reytingi haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, global muammo, illat, tarix, poraxo‘rlik, Geradot, Qadimgi Yunoniston, qonun hujjatlari, OAV, Yangi Zelandiya, Daniya, Finlandiya, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi.*

**CORRUPTION IS THE MAIN PROBLEM OF DEVELOPED COUNTRIES**

***Abstract.** This article deals with the concept of corruption, the reasons for the emergence of corruption and the punishment used against it, the ranking of states where corruption has developed and the level of corruption is low.*

***Keywords:** corruption, global problem, vice, history, bribery, Herodotus, Ancient Greece, legislation, media, New Zealand, Denmark, Finland, Anti-Corruption Agency.*

**КОРРУПЦИЯ – ГЛАВНАЯ ПРОБЛЕМА РАЗВИТЫХ СТРАН**

***Аннотация.** В данной статье рассматривается понятие коррупции, причины возникновения коррупции и наказания, применяемые против нее, рейтинг стран с развитой коррупцией и низким уровнем коррупции.*

***Ключевые понятия:** Коррупция, глобальная проблема, порок, история, взяточничество, Геродот, Древняя Греция, законодательство, СМИ, Новая Зеландия, Дания, Финляндия, Антикоррупционное агентство.*

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lmagan global muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illat har qandati davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazmoqda, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib kelmoqda.

Shunday ekan, korrupsiya nima va uning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, avvalo, korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab moddiy

yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish. Korrupsiya atamasi lotincha “corruptio” soʻzidan olingan boʻlib, pora berib sotib olish, buzilish, ishdan chiqish, axloqiy (maʼnaviy) buzilish degan maʼnolarni anglatadi. Odatda mansabdor shaxs tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan, shuningdek, bu bilan bogʻliq rasmiy nufuz maqomidan, imkoniyatlar va aloqalaridan oʻzlarining shaxsiy manfaatlarini koʻzlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.<sup>1</sup>

Korrupsiyaning tarixiy oʻzaklari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Bu hol qabilada maʼlum mavqega ega boʻlish uchun qabila sardorlariga sovgʻalar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Oʻsha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markazlashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta toʻsiq ekanligini koʻrsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni, ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxoʻrligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan maʼlum. Chunki bu holat davlatning obroʻsiga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxoʻrligi qattiq qoralanadi.

Qadimgi Yunonistonda qaror qabul qilish evaziga pul qabul qilgan sudyalalar ayniqsa jazolangan. Gerodotning eslatishicha, fors hukmdori Kambis korrupsiya uchun sudlangan shaxsni qatl etishni va uning terisini shilib oʻzi oʻtiradigan kursisiga tortib kuyishni buyurgan.

Boshqa bir fors shohi Doro buzuq sudyalarni yogʻochga mixlash yoʻli bilan qatl etgan. Sitseron korrupsion sudya eng ogʻir jinoyatlardan birini sodir etadi deb ishontirib oʻtgan. Jumaladan, Injilda “Sovgʻalarni qabul qilma, chunki sovgʻa koʻrni koʻradigan qiladi va haqiqatni oʻzgartiradi” deyilgan boʻlsa, Qurʼoni Karimda “Boshqalarning mulkini nohaq yoʻl bilan olmangiz va boshqalarga tegishli boʻlgan narsalarni olish uchun oʻz mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” deyilgan.<sup>2</sup>

Shunday ekan, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yoʻllarini topish boʻyicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar oʻtkazilgan. Oʻziga xos reytinglar tuzilib, har xil koʻrsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan.

---

<sup>1</sup> Veb-sayt: <https://www.urgut.uz>

<sup>2</sup> <https://www.sbtsue.uz>

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqida: "Har bir so'zimiz, har bir xatti-harakatimiz jamiyatga, odamlar qalbiga qanday ta'sir ko'rsatishiga har qachongidan ham ko'roq e'tibor berishimiz zarur. Davlat tuzumini ichidan yemiradigan, ijtimoiy barqarorlik kushandasi bo'lgan korrupsiya balosiga qarshi, byurokratiyaning har qanday ko'rinishlariga, odamlarni mensimaslik, mahalliychilik va guruhbozlik illatlariga qarshi barchamiz keskin kurash olib borishimiz kerak. Men ishonaman – ko'pni ko'rgan, mard va olijanob, mehnatkash va bag'rikeng xalqimiz bilan birgalikda Yangi O'zbekistonni – inson tinch, ozod va farovon yashaydigan, ezgu maqsadlarini emin-erkin amalga oshiradigan davlat va jamiyatni albatta barpo etamiz. Buning uchun bizda barcha siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy asoslar, eng muhimi, kuchli xohish-iroda va qat'iy intilish bor", - deb ta'kidlab o'tdi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori<sup>3</sup> bo'yicha O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi" tashkil etildi.

Bu agentlik korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, davlat organlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining birgalikdagi samarali faoliyatini ta'minlash, shuningdek, mazkur sohadagi xalqaro hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Shuningdek o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobot beradi; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor tomonidan boshqariladi. Prezidentning Agentlik direktorini lavozimga tayinlash va ozod qilish to'g'risidagi farmonlari Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadi.<sup>4</sup>

*Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining vazifasi* korrupsiya holatini tizimli tahlil qilish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish; korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida vazirlik va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, OAV, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha birgalikdagi samarali faoliyatini tashkil etish; korrupsiyani oldini olish

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yana-da takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 07.12.2021 yildagi PQ-34-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5763360>.

<sup>4</sup> <https://strategy.uz>



## • ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI • ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida tuzildi. Shunaqa agentliklar boshqa davlatlarda ham tashkil etilgan bo'lsada ammo hali hamuz korrupsiya darajasi oshmoqda lekin kamaygani yo'q.

Xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti Transparency International dunyoning turli mamlakatlaridagi korrupsiya darajasini aks ettiruvchi reytingini e'lon qildi.

Qayd etilishicha, reytingda umuman ballga ega bo'lmagan mamlakat korrupsiya domiga to'liq sho'ng'iganini, 100 ballga ega mamlakatda korrupsiyaning deyarli yo'qligini anglatadi.

2016 yilgi reytingning o'rtacha ko'rsatkichi 43 ballni tashkil etgan, ro'yxatdagi 176 mamlakatning 2/3 qismidan ko'prog'ining to'plagan balli 50dan pastligi ta'kidlanadi. Bu esa, ushbu mamlakatlarning davlat sektorida korrupsiya darajasi yuqori ekanidan dalolatdir, deya qayd etishgan reyting tuzuvchilari.

2015 yil kabi 2016 yil reytingini ham 90 ballik ko'rsatkich bilan Daniya boshqarmoqda. Yangi Zelandiya shunday natija bilan birinchi o'rinni baham ko'rgan. Uchinchi va to'rtinchi o'rinlarda Finlyandiya va Shvetsiya bo'lsa, kuchli o'nlikka, shuningdek, Shveysariya, Norvegiya, Singapur, Niderlandiya, Kanada, Germaniya, Lyuksemburg, Buyuk Britaniya (so'nggi uch davlat 10-o'rinda) kirgan.

2016 Rank	Country	2016 Score	2015 Score	2014 Score	2013 Score	2012 Score	Region
1	Denmark	90	91	92	91	90	Europe and Central Asia
1	New Zealand	90	88	91	91	90	Asia Pacific
3	Finland	89	90	89	89	90	Europe and Central Asia
4	Sweden	88	89	87	89	88	Europe and Central Asia
5	Switzerland	86	86	86	85	86	Europe and Central Asia
6	Norway	85	87	86	86	85	Europe and Central Asia
7	Singapore	84	85	84	86	87	Asia Pacific
8	Netherlands	83	87	83	83	84	Europe and Central Asia
9	Canada	82	83	81	81	84	Americas
10	Germany	81	81	79	78	79	Europe and Central Asia
10	Luxembourg	81	81	82	80	80	Europe and Central Asia
10	United Kingdom	81	81	78	76	74	Europe and Central Asia
13	Australia	79	79	80	81	85	Asia Pacific

Tashkilotga ko'ra, eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgan mamlakatlar matbuot erkinligining yuqori darajasi, byudjetga doir ma'lumotlarning shaffofligi, hokimiyat mulozimlarini pul evaziga sotib olish imkonsizligi, boy va kambag'al odamlarni farqlamaydigan

## • ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI • ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

hamda davlat tizimining boshqa qismlaridan tom ma'noda mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi sud organlari bilan ajralib turadi.

Dunyoning yirik davlati bo'lgan Rossiya 29 ball to'plab, 131-o'rinni egallagan. Ukraina, Qozog'iston, Eron va Nepal Rossiya bilan bir xil ko'rsatkichni namoyon etgan, deyiladi Transparency International hisobotida.

2016 Rank	Country	2016 Score	2015 Score	2014 Score	2013 Score	2012 Score	Region
123	Djibouti	30	34	34	36	36	Sub Saharan Africa
123	Honduras	30	31	29	26	28	Americas
123	Laos	30	25	25	26	21	Asia Pacific
123	Mexico	30	35	35	34	34	Americas
123	Moldova	30	33	35	35	36	Europe and Central Asia
123	Paraguay	30	27	24	24	25	Americas
123	Sierra Leone	30	29	31	30	31	Sub Saharan Africa
131	Iran	29	27	27	25	28	Middle East and North Africa
131	Kazakhstan	29	28	29	26	28	Europe and Central Asia
131	Nepal	29	27	29	31	27	Asia Pacific
131	Russia	29	29	27	28	28	Europe and Central Asia
131	Ukraine	29	27	26	25	26	Europe and Central Asia
136	Guatemala	28	28	32	29	33	Americas
136	Kyrgyzstan	28	28	27	24	24	Europe and Central Asia

Tashkilot reytingidan o'rin olgan O'zbekiston esa (21 ball) Kamboja, Kongo Demokratik Respublikasi bilan birgalikda 156-o'rinni band etib turibdi. O'zbekistonning o'tgan yilgi bu boradagi ko'rsatkichi 19 ballga teng bo'lgan edi. Respublikaning Markaziy Osiyodagi yonqo'shnilari bo'lgan Tojikiston 25 ball to'plab 151-o'rinni, Turkmaniston 22 ball bilan 154-o'rinni band etgan. Qirg'izistonning bu boradagi ko'rsatkichi birmuncha yuqori, u 28 ball bilan 136-o'ringa joylashgan.

2016 Rank	Country	2016 Score	2015 Score	2014 Score	2013 Score	2012 Score	Region
145	Kenya	26	25	25	27	27	Sub Saharan Africa
145	Madagascar	26	28	28	28	32	Sub Saharan Africa
145	Nicaragua	26	27	28	28	29	Americas
151	Tajikistan	25	26	25	22	22	Europe and Central Asia
151	Uganda	25	25	26	26	29	Sub Saharan Africa
153	Comoros	24	26	26	28	28	Sub Saharan Africa
154	Turkmenistan	22	18	17	17	17	Europe and Central Asia
154	Zimbabwe	22	21	21	21	20	Sub Saharan Africa
156	Cambodia	21	21	21	20	22	Asia Pacific
156	Democratic Republic of Congo	21	22	22	22	21	Sub Saharan Africa
156	Uzbekistan	21	19	18	17	17	Europe and Central Asia
159	Burundi	20	21	20	21	19	Sub Saharan Africa
159	Central African Republic	20	24	24	25	26	Sub Saharan Africa
159	Chad	20	22	22	19	19	Sub Saharan Africa

Bundan tashqari "Transparency International" xalqaro tashkilotining 2021-yil uchun chiqargan korrupsiya indeksidan ma'lum bo'lishicha, dunyo mamlakatlarining 86 foizi oxirgi 10 yilda korrupsiyaga qarshi kurashda biror ijobiy siljishga erishmagan.

Korrupsiyaning global o'rtacha ko'rsatkichi 100 balli tizimda 43 ballni tashkil etgan. Jami davlatlarning uchdan ikki qismida bu raqam 50 dan past. Raqam qancha past bo'lsa, korrupsiya yanada keng tomir yozganini anglatadi.

Korrupsiya eng kam deb topilgan davlatlar ro'yxatini Daniya (88), Finlyandiya (88) va Yangi Zelandiya boshqarmoqda. Ular, shuningdek, inson huquqlari eng ko'p e'zozlanadigan davlatlar ro'yxatida yetakchi.

**1-o'rin. Yangi Zelandiya — 89 ball.**

Yangi Zelandiya dunyodagi eng kam korrupsiyalashgan mamlakat hisoblanadi. Yangi Zelandiya iqtisodiyoti asosini turizm, vino, go'sht va sut mahsulotlari eksporti tashkil etadi. Aholi jon boshiga YaIM 38 075 dollarni tashkil etadi.

**2-o'rin. Daniya — 88 ball.**

Daniya 2017 yilda turmush darajasi sifati bo'yicha dunyoning eng yetakchi davlatlaridan biri hisoblanadi. Daniyada aholi jon boshiga YaIM 47 992 dollarga to'g'ri keladi.

Mamlakat iqtisodiyoti juda rivojlangan bo'lib, fuqarolari yuqori turmush darajasi, sifatli ta'lim va tibbiyot tizimi, erkinliklar, demokratsiya va yuqori ish haqi bilan ta'minlangan.

**3-o'rin. Finlyandiya — 85 ball.**

Sifatli ta'lim, fuqarolik erkinliklari va yuqori turmush darajasiga ega mamlakat. Aholi jon boshiga YaIM 2017 yilda 42 502 dollarni tashkil etgan.

**4-o'rin. Norvegiya — 85 ball.**

Bu mamlakat iqtisodiyoti asosan tabiiy gaz, neft, minerallar, chuchuk suv va dengiz mahsulotlariga tayanadi. Norvegiyada aholi jon boshiga YaIM 70 066 dollarga teng.

**5-o'rin. Shveysariya — 85 ball.**

Banklar va tog'-chang'i kurortlari mamlakati turmush darajasi, biznes yuritish sharoitlari va moliyaviy tizim shaffofligi tufayli turli reytinglarda yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Shveysariyada aholi jon boshiga YaIM 60 501 dollarni tashkil etadi.

**6-o'rin. Singapur — 84 ball.**

Eng kam korrupsiyalashgan mamlakatlar o'nligiga kirgan Osiyoning yagona davlati. Bunga Singapur asoschisi Li Kuan Yu ulkan hissa qo'shgan. Bir avlod almashuvi davomida mamlakat qashshoqlik botqog'idan qutulishga, korrupsiyadan xalos bo'lishga va mintaqadagi



yetakchi davlatlardan biriga aylanishga erishdi. Singapurda aholi jon boshiga YaIM 89 276 dollarga to'g'ri keladi.

**7-o'rin. Shvetsiya — 84 ball.**

Shvetsiya fuqarolari yuqori turmush darajasi, a'lo darajadagi tibbiy xizmat, sifatli ta'lim, fuqarolik erkinliklariga rioya qilinishi va mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligi bilan maqtanishlari mumkin. 2017 yilda Shvetsiyada YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi 50 757 dollarni tashkil etgan.

**8-o'rin. Kanada — 82 ball.**

2017 yilda Kanadada aholi jon boshiga 47 307 dollar YaIM to'g'ri kelgan. Ammo ayrim sohalarda muammolar mavjud. Kanadadagi biznes rahbarlarining 30%ga yaqini poraxo'rligni mamlakatning asosiy muammolaridan biri deb hisoblaydi.

**9-o'rin. Lyuksemburg — 82 ball.**

Mamlakat aholi jon boshiga YaIM to'g'ri kelishi bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinda turadi — 103 388 dollar. Lyuksemburgda korrupsiya darajasi past bo'lsa-da, aholi va siyosiy partiyalar o'rtasida ishonchsizlik mavjud. Lyuksemburgning 53%ga yaqin aholisi o'z siyosatchilarini korrupsiyalashgan deb hisoblaydi.

**10-o'rin. Niderlandiya — 82 ball.**

Niderlandiya eng kam korrupsiyalashgan mamlakatlar yuqori o'ntaligini ochib beradi. Mamlakatda mustaqil sud tizimi faoliyat yuritadi. Shu bois hokimiyatning barcha bo'g'inlarida korrupsiya holati kam uchraydi. Niderlandiyaning har bir fuqarosiga YaIMning 51 885 dollari to'g'ri keladi.

Ro'yxatning eng quyi qismida, ya'ni korrupsiyaga chuqur botgan o'lkalar qatorida Somali (13), Suriya (13) va Janubiy Sudan (11) turibdi. Suriya ayni paytda fuqarolik erkinliklari eng yomon davlat deb topilgan. Bu masalada Somali va Sudanga baho berilmagan.

O'tgan 10 yil ichida 154 davlatda vaziyat yomonlashgan yoki hech qanday ijobiy o'zgarish yuz bermagan.

Hisobotda eng yomon ko'rsatkichlar, ushbu mamlakatlarda davlat institutlarining ishonchsizligi hamda OAVning yetarli darajada mustaqil emasligini isbotlaydi. Avvalgi yillarda bo'lgani kabi, dunyo mamlakatlarining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining o'rtacha bali 43 dan 50 gacha ko'rsatkichda turibdi, bu aksariyat mamlakatlarning - korrupsiyani jiddiy nazorat qila olmaganligi va demokratiyaning inqirozidan dalolat beradi.<sup>5</sup>

---

<sup>5</sup>Veb-sayt: <https://kun.uz>

Korrupsiyaga qarshi kurashish har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Poraxo'rlik insonning nafsi, dunyoqarashi, madaniyati, e'tiqodining qandayligiga qarab yuzaga keladi. Agar insonning nafsi yomon bo'lsa, o'zganing molini yeyishdan ham qo'rqmaydi yoki biror bir mansabga erishish uchun pul berib korrupsiyaga yo'l qo'yadi. Vaholanki, pul beruvchi ham, oluvchi ham, vositachi ham jinoyat sodir etadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bir qator moddalarida korrupsion jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Jumladan, 210, 211, 212, 167 va boshqa moddalarida. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 192<sup>11</sup>-moddasida, "Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish", ya'ni mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, ya'ni nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, —bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoxud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

- a) juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi"<sup>6</sup>- deb belgilangan. Boshqa davlatlarda ham shu kabi korrupsiyaga qarshi jazo choralari belgilangan bo'lsada, lekin ko'p davlatlarning hali hamuz asosiy muammosi korrupsiya bo'lib kelmoqda.

So'zimiz yakunida aytish mumkinki, korrupsiya - taraqqiyot kushandasi, xavfsizlik, tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyatdir. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, balki barchaning ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.


---

<sup>6</sup>Veb-sayt: <https://lex.uz>



#### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 114 <https://lex.uz/docs/153>.
3. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yana-da takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 07.12.2021 yildagi PQ-34-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5763360>.
5. Sh.Mirziyoyev. Bu - ijtimoiy barqarorlik kushandasi. <http://kun.uz>.
6. Korrupsiya nima? Urgut.uz.
7. Korrupsiyaning tarixiy o'zakkari qayerdan kelib chiqqanini bilasizmi? Darakchi.
8. Jahon mamlakatlaridagi korrupsiya darajasi: O'zbekiston qaysi o'rinda? Kun.uz



MODERN SCIENCE  
& RESEARCH